

**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI**  
**OLIV VA O‘RTA MAXSUS TA‘LIMI VAZIRLIGI**  
**NIZOMIY NOMIDAGI**  
**TOSHKENT DAVLAT PEDAGOGIKA UNIVERSITETI**

**"BOTANIKA" KAFEDRASINING " YOSH TABIATSHUNOSLAR "**  
**KASBIY TO‘GARAGINING 2015-2016 O‘QUV YILI UCHUN**  
**ISH REJASI**

# **“BOTANIKA” KAFEDRASI QOSHIDAGI "YOSH TABIATSHUNOSLAR" KASBIY TO‘GARAGI DASTURI**

## **I. Kirish**

O‘zbekiston Respublikasi mustaqillikka erishgan kundan boshlab tabiatni muhofaza qilish muammolariga katta e‘tibor berib kelmoqda. O‘zbekiston Respublikasi konsitutsiyasi, «Tabiatni muhofaza qilish» haqidagi qarorlar va boshqa qonun-qoidalarda tabiiy zaxiralar, tabiatni muhofaza qilish, tabiiy boyliklardan oqilona foydalanishning ekologik huquqiy asoslari bayon qilingan.

Tabiat bilan jamiyat o‘rtasidagi munosabatlar, ularning rivojlanishi davlatning huquqiy qoidalarida qayd qilingan. Davlatning ekologik dasturi, uning harakat qilish funksiyalari, inson bilan tabiatning katta-kichik elementlari, birliklari o‘rtasidagi munosabatlar, ekologik normalar, shaxsning tabiatga bo‘lgan huquq, vazifalari ekologik qonunlarda o‘z aksini topgan.

O‘zbekiston Respublikasining qonunlari: «Tabiatni muhofaza qilish» to‘g‘risidagi, «Suv va suvdan foydalanish haqida», «Yer to‘g‘risida», «Atmosfera havosi to‘g‘risida» qonunlar qabul qilingan.

Ma’lumki, butun tabiiy obektlar - yer, yer osti va yer usti boyliklari, suv, o‘rmon, atmosfera havosi, o‘simlik va hayvonlar olamining vakillari davlat mulki hisoblanadi. Bu boyliklardan foydalanishning qonun-qoidalari bo‘lib, davlatning maxsus ruxsati yoki viloyat, tashkilot bilan davlat o‘rtasidagi shartnoma asosida tabiiy boyliklardan foydalaniladi.

Davlat huquqiy qoidalariga binoan, mamlakatning har bir aholisi toza, sog‘lom va go‘zal tabiat, uning elementlari-yer, suv, o‘rmon, o‘simlik qoplami va hayvonlar vakillarini ijaraga olib, foydalanish huquqiga egadir.

Tabiat uning, tabiiy zaxiralari-havo, suv, yer boyliklari davlat va uning huquqiy tashkilotlari tomonidan nazorat qilinadi. Har bir tabiiy zaxiradan foydalanish ekologik va iqtisodiy tomondan rejalashtirilgan asosida olib boriladi, nazorat qilinadi. Huquqiy va tashkiliy davlat nazorati: tabiatning holati, uni boshqarish ekologik nazorat formasi; davlat va turli tashkilotlar, korxonalararo ekologik nazorat, sanitar-ekologik nazorat va jamoatchilik (mahalla tozaligi, suv tozaligi) nazorati o‘rnatiladi.

Tabiat va tabiiy boyliklardan foydalanish jar ay onida yo‘llar, korxonalar, turli gidrotarmoqlar qurilishida har bir obekt, uning loyihasi ahamiyati, tabiatga keltiradigan foyda va ziyoni har tomonlama o‘rganiladi va ekologik ekspertizadan o‘tkaziladi. Obektning ekologik ekspertizasi bilimdon, tabiatning ekologik qonunlarini yaxshi biladigan mutaxassislar tomonidan ekspertiza qilinadi, baholanadi. Obektning ekspertizasini keng jamoatchilik ham ko‘rib chiqib, uning yaroqli yoki yaroqsiz ekanligini aniqlaydi.

Tabiatda sodir bo‘ladigan turli tabiiy ofatlar - yer silkinishi, yer siljishi, suv bosishi, qor ko‘chishi, tinimsiz shamol, sel kelishi kabi ekologik ofatlarning oldini olish, kelib chiqish sabablarini aniqlash, tasodifan yuzaga kelgan tabiiy holatlar chegaralarining kengayishini to‘xtatish kabi ekologik-huquqiy chora-tadbirlar ko‘riladi. Shu yo‘l bilan tabiatning turli qismlaridan yuzaga kelgan yomon holatlarga barham beriladi (suv bosishda to‘g‘onlar qurish, kelayotgan selni to‘xtatish, chigirtkaning ko‘payishini kimyoviy yo‘l bilan yo‘q qilish va hk.), tabiatning kichik qismida uning muhofazasi amalga oshiriladi.

Tabiat elementlari bo‘lmish suv, havo, yer, o‘simlik va hayvonlar vakillari, yer

usti-yer osti zaxiralarining tuzilishi, tarkibini buzgan, sonini kamaytirgan, tabiiy holat goʻzalligiga, suv tozaligiga, putur yetkazgan, daraxtlarni kesgan, oʻt qoʻygan, hayvonlarni ruxsatsiz otgan, oidirgan, yer usti zaxiralarini oʻgʻirlagan tashkilotlar, ularning vakillari davlat oldida javobgardir. Tabiatning ekologik holatini buzgan tashkilot yoki shaxs sifatida davlat qonun-qoidalari boʻyicha javobgarlikka tortiladi yoki tabiat, davlatga yetkazgan zarari uchun jarima tolaydi.

Bunday ekologik-huquq qoidalari buzilishini xoʻjalik rahbarlari yoki jinoiy huquq tashkilotlari kuzatishi kerak. Chunki tabiatning tabiiy holati buzilishi, havo, suvning ifloslanishi, tuproqning zaharlanishi, oʻsimlik, hayvonlar sonining kamayishi natijasida tabiat boyliklaridan foydalanishning hajmi, sifati kamayadi, oxir-oqibat insonlar hayotiga xavf tuoʻiladi, salomatlik darajalari pasayadi, turli kasalliklar paydo boʻladi, oʻlim koʻpayadi.

Shuning uchun ekologik-huquqiy javobgarlikni kuchaytirishda huquqni himoya qiluvchi sud tashkilotlari-xoʻjalik sudlari, prokuratura, ichki ishlar xodimlarining roli kattadir. Ular tabiat, uning boyliklarini muhofaza qilishda, tashkiliy hamda huquqiy tomondan, aholini ekologik tarbiyalashda ham katta ish olib boradilar.

Tabiatning Yer va yer fondidan foydalanish, muhofaza qilish ham Oʻzbekiston Respublikasi qonunlari asosida yer reformasi asosiy yoʻnalishlari, maqsadlari va yer fondini davlat tomonidan huquqiy muhofaza qilinishi qayd qilingan. Qonunlarda yer, shaxsiy mulk muammosi, yerdan umrbod foydalanish, ijaraga olish borasida xoʻjaliklar, ayrim shaxslarning huquqlari oʻz aksini topgan. Qonunda davlat, xoʻjaliklar va ayrim shaxslar oʻrtasidagi munosabatlar shartnoma asosida amalga oshirilishi, shartnomani choʻzish yoki toʻxtatish kabi holatlar davlat nazorati ostida boʻlishi ochiq koʻrsatilgan.

Yerdan foydalanish va uni muhofaza qilishning huquqiy asoslari: Yer muhofazasi, yer huquqlari, xoʻjalik huquqlari, fuqarolik va jinoiy javobgarlik qonun-qoidalari asosida amalga oshiriladi.

Yer boyliklari va tuproqni muhofaza qilish huquqiy qonun-qoidalarga asoslangan. Maʼlumki, sayyoraning toza qatlami tuproq boʻlib, uning ekologik va iqtisodiy funksiyasi, ahamiyati juda yuqoridir.

## **II. TOʻGARAKNING MAQSADI**

Toʻgarak aʼzolarini tabiatni asrashi, tirik burchaklar tashkil etish, xona oʻsimliklarini oʻstirish va parvarish qilish qonun-qoidalarini oʻrgatish.

Hozirgi kunda insonning xoʻjalik faoliyati tufayli yer shari resurislarning tabiiy halati tez uzgarib, atrof-muhit ifloslanib bormoqda. Bu hol Yer kurrasi tabiati va tabiiy resurislarning qoshshoqlashib borishiga sabab boʻlmoqda.

### III. TO‘GARAKNING VAZIFALARI

Bo‘lg‘usi o‘qitvchilar hisoblangan pedogogika sliy o‘quv yurtlari talabalari, mutaxassisligidan qati nazar, bu muommolarni o‘z vaqtida ijobiy hal qilish uchun ekologik malumotga ega bo‘lishlari, tabiat qonunlaridan xabardor bo‘lishlari, tabiat bilan jamiyat o‘rtasidagi uzviy bog‘liklikning tub mohiyatlarini anglab yetishlari kerak.

#### **Asosiy vazifalar:**

- To‘garakka biologiya faniga qiziquvchan, iqtidorli talabalarni tanlash.
- To‘garak sardori va kotibini tayinlash.
- To‘garak rejasini tuzish.
- To‘garak uchun tegishli adabiyotlar bilan to‘garak a‘zolarini tanishtirish
- Xona o‘simliklarining o‘sivi va ko‘payishi uchun zarur bo‘lgan qoidalar bilan to‘garak a‘zolarini tanishtirish
- Jonli burchakdagi o‘simliklarni parvarish qilish
- Tuvaklarda vegetativ ko‘payib ketgan o‘simliklarni bo‘lib o‘tkazish
- O‘simliklarga o‘g‘itlar solish
- Kasallangan o‘simliklarni parvarish qilish
- Katta bo‘lib tuvaklariga sig‘may ketgan o‘simliklarni tuvaklarini almashtirish
- Xona o‘simliklari haqida stengazetalar chiqarish
- Xona o‘simliklarining dorivordlik xususiyatlari haqida suxbatlar o‘tkazish

### IV. "YOSH TABIATSHUNOSLAR" TO‘GARAGI OLDIGA QO‘YILADIGAN TALABLAR:

- tabiatda kuzatish olib borish inson faoliyatining tirik organizmlarga kursatayotgan ta‘sirini to‘g‘ri anglab bilish, kuzatish natijalarini bayon eta olish, yozma hisobot bera olish, olingan ma‘lumotlarni tahlil qilishni **bilishi kerak**;

- fazo va vaqt birliklarida eng oddiy miqdoriy hisobini olish, turli asboblarda yordamida o‘lchov ishlarini olib borish, olingan ma‘lumotlarni jadvallar, diagrammalar va grafiklarda aks ettira olish, o‘lchov asboblarining o‘rganilayotgan miqdor va ko‘rsatgichlari asosida tanlash va texnika xavsizligi qoidalariga rioya qilish hamda yozma ko‘rsatgichlar va sxema tasvirlari tavsiya etish haqida nazariy bilim va **ko‘nikmalariga ega bo‘lishi kerak**.

- olingan natijalarni isbotlash uchun oddiy jadvallarni turli ko‘rinishlarda diagrammalar, grafiklar yordamida tasvirlash va tegishli xulosalar yoki yakun yasash, atrof-muhit holatini eng oddiy usullar bilan kuzatib borish, monitoring, suv, havo va tuproqlarni tahlil qilish, olingan ma‘lumotlardan foydalana olishdek amaliy ko‘nikma va **malakalariga ega bo‘lishlari kerak**.

## V. TO‘GARAK FAOLIYATINING TA‘LIM\_TARBIYANING BOSHQA JARAYONLARI BILAN BOG‘LIQLIGI

Mazkur to‘g‘arak faoliyati o‘z ishini o‘quv rejasidagi asosiy fanlardan olingan bilimlarga tayangan holda olib boradi, ularni o‘rganish asosda olingan bilimlar, egallangan ko‘nikma va malakalarning kengayishi va mustahkamlanishiga imkon beradi. Bunda zoologiya, odam anatomiyasi va fiziologiyasi, botanika, tabiiy va iqtisodiy geografiya, genetika, tuproqshunoslik, kimyo, paxtachilik va boshqa fanlar bilan mustahkam aloqada bo‘ladi.

Bu fanni o‘zlashtirishda fanlarni o‘zlashtirishi muhim.

## VI. ISH REJASI

№	Ish mazmuni	Masul	O‘tkazish muddati	O‘tkazilganligi haqida qayd №	Izox
1.	“Yosh tabiatshunoslar” to‘garagiga iqtidorli talabalarni jalb qilish. To‘garakning maqsad va vazifalari ni belgilash. To‘garak sardorini va kotibini saylash.	To‘garak raxbari	2015 yil sentabr	Bayonnoma № 1	Talabalarga to‘garak haqida tushunchalar berish
2.	To‘garak rejasini tuzish va to‘garak a‘zolarini reja bilan tanishtirish	To‘garak raxbari va a‘zolari	2015 yil sentabr	Bayonnoma № 2	Rejani bajarish Haqida Tushuncha berish
3.	Kafedra qoshida tashkil etilgan “Jonli burchak” dagi o‘simliklar bilan to‘garak a‘zolarini tanishtirish, ularni parvarish qilish qoidalarini o‘rgatish.	To‘garak raxbari va a‘zolari	2015 yil Sentabr va yil davomida	Bayonnoma № 3	Jonli urchakni parvarish qilib borish
4	Jonli burchakdagi o‘simliklarning kelib chiqish markazlari bilan tanishtirish	To‘garak raxbari va a‘zolari	2015 yil oktabr	Bayonnoma № 4	O‘simliklarni kelib chiqish markazlari bilan tanishtirish
5	To‘garak azolariga jonli burchakdagi o‘simliklarning biologiyasini o‘rganish uchun obektlar bo‘lib berish	To‘garak raxbari va a‘zolari	2015 yil noyabr	Bayonnoma № 5	To‘garak a‘zolariga obektlar bo‘lib berish
6.	To‘garak burchagidagi o‘simliklarni sug‘orish usullarini o‘rgatish	To‘garak azolari va a‘zolari	2015 yil noyabr	Bayonnoma № 6	O‘simliklarni sug‘orish usullari bilan tanishtirish
7.	Jonli urchakdagi o‘simliklarni yorug‘ikka qarab joylashtirishni	To‘garak raxbari va a‘zolari	2015 yil Dekabr	Bayonnoma №7	O‘simliklarni jonli burchakga joylashtirish

	o'rgatish				
8.	O'simliklar uchun tuvaklar tanlash va o'g'itlash usullari bilan tanishtirish	To'garak raxbari va a'zolari	2015 yil Dekabr	Bayonnoma № 8	O'simliklar uchun tuvaklar tanlash va o'g'itlash
9.	O'simliklarni zararkunandalarga qarshi kurash choralarini o'rgatish	To'garak raxbari va a'zolari	2016 yil yanvar	Bayonnoma № 9	O'simliklarni zararkunandalarga qarshi kurashishni o'rgatish
10.	O'simliklarning bir tuvakdan ikkinchisiga ko'chirib o'tkazishni o'rgatish	To'garak raxbari va a'zolari	2016 yil fevral	Bayonnoma № 10	Gazeta chiqazish
11	“Yosh tabiatshunoslar” sten gazetasini chiqarish	To'garak a'zolari	2016 yil fevral	Bayonnoma № 11	Xona o'simliklarini o'g'itlash xaqida tushuncha berish
12	O'simliklarni turli yo'llar bilan ko'paytirish usullarini o'rgatish	To'garak raxbari va azolari	2016 yil mart	Bayonnoma № 12	O'simliklarni ko'paytirish
13	Xona o'simliklariga atrof-muhitning ta'sirini o'rganish	To'garak a'zolari	2016 yil mart	Bayonnoma № 13	O'simliklariga atrof-muhitning ta'sirini o'rganish
14	Kafedraga qarashli o'z RFA O'simliklar va hayvonlar genofondi Institutini Botanika bog'ida introduksiya qilingan dorivor o'simliklarni o'rganish.	To'garak a'zolari va boshqa talabalar	2016 yil aprel	Bayonnoma № 14	O'z RFA O'simliklar va hayvonlar genofondi Institutini Botanika bog'ida maydonlarida kuzatish olib borish
15	Gidroponika usulida gullarni o'stirish	To'garak a'zolari	2016 yil may	Bayonnoma № 15	Gidroponika usulida gullarni o'stirish

## VI. MUSTAQIL TA'LIM VA MUSTAQIL ISHLAR MAVZULARI

1. Insonning tabiatga salbiy tasiri nima uchun ortib bormoqda?
2. Orol dengizining qurib borishi sabablari.
3. Xadislarda ekologik qarashlar.
4. O'zbekiston "Qizil kitob" ining yaratilishi.
5. O'simliklarni muhofaza qilish.
6. "Qizil kitob" nashrlari ningahamiyati.
7. Buyurtmaxona nima va uning xillari.
8. O'zbekistondagi o'rmon resurslari.
9. O'zbekiston "Qizil kitobi"ga kiritilgan o'simliklar.
10. Qo'riqxonalar, O'zbekistondagi qo'riqxonalar.
11. Tirik organizmlar tarqalgan asosiy hayot muhitlari.
12. "Ozon" qavatining emirilishi muammosi.
13. Tabiat yodgorliklari.
14. «Qizil kitob»ni paydo bo'lishi sababi nima?
15. Yashil o'simliklarning ahamiyati.
16. Gulchilikni o'tishdan maqsad va vazifalar.
17. Gulchilik bilan shug'ullanadigan xo'jaliklar.
18. O'simliklarni urug'idan ko'paytirish.
19. Urug'ning sifati, tozaligi va o'suvchanligini aniqlash.
20. Urug'larnini ekishga tayyorlash.
21. Urug'larnini ekish.
22. O'simliklarni vegetativ ko'paytirish usullari.
23. Vegetativ ko'paytirish vaqtlari.
24. O'simliklarni tabiiy vegetativ ko'paytirish.
25. O'simliklarni sun'iy vegetativ ko'paytirish.
26. Atir gullarni ochiq yerlarda ko'paytirish.
27. Chinni gullarni ochiq yerlarda ko'paytirish.
28. Atir gullarni usti yopiq yerlarda ko'paytirish.
29. Chinni gullarni usti yopiq yerlarda ko'paytirish.
30. Bir va ikki yillik o'simliklar.
31. Ko'p yillik o'simliklarni o'stirish.
32. Ko'p yillik qishlamaydigan o'simliklarni o'stirish.
33. Ko'p yillik qishlaydigan o'simliklar.
34. Gerbariylar tayyorlash.
35. Gullari uchun usti yopiq yerlarda o'stiriladigan o'simliklar.
36. Usti yopiq yerlarda o'stiriladigan o'simliklar.
37. Gulzorlar tashkil qilish.
38. Gulzorlarning har xil shakllari.
39. Gullarni o'sishga qarab o'tkazish.
40. Maysazorlar va ularning ahamiyati.
41. Manzarali maysazorlarni tashkil etish.

## Mustaqil ta'lim topshiriqlari bo'yicha tavsiyalar

Mustaqil talim talabalar mustaqil o'rganadigan ma'ruza va amaliy mashg'ulotlari mavzularidan iborat. Mustaqil ta'lim talabalarning nazariy bilimlarini mustahkamlashga mavzularni tushunish va o'zlashtirish qobiliyatini rivojlanishiga umumiy dunyoqarashining kengaytirishga yordam beradi.

### To'garak jadvali:

To'garak har oyning ikkinchi va to'rtinchi seshanbasida, soat 14-00 dan 16-00 gacha 2-04 xonada o'tkaziladi.

### “YOSH TABIATSHUNOSLAR” KASBIY TO'GARAK A'ZOLARI RO'YXATI

<b>№</b>	<b>Talabalarining F.I.O.</b>	<b>Guruh</b>
1	Murodullayeva Gulsanam	202 –guruh BO'M
2	Jo'rayeva Nilufar	202 –guruh BO'M
3	Rahmonova Yulduz	202 –guruh BO'M
4	Xayitova O'g'iloy	202 –guruh BO'M
5	Saburova Nargiza	202 –guruh BO'M
6	Xaydarova Anzirat	202 –guruh BO'M
7	Shodiyev Abbas	202 –guruh BO'M
8	Mardonoba Gulsanam	202 –guruh BO'M
9	Maxmudova Malika	201 –guruh BO'M
10	Toshkanova Go'zal	201 –guruh BO'M
11	Muxammadiyeva Gavxar	201 –guruh BO'M
12	Norbekova Shaxnoz	203 –guruh BO'M
13	Imomxonova Farog'at	203 –guruh BO'M
14	Gafurova Umida	203 –guruh BO'M



15	Shomahmudova Shirin	203 –guruh BO’M
16	Ismoilova Sabina	203 –guruh BO’M
17	Ergasheva Sevara	203 –guruh BO’M
18	Mirzayeva Dilorom	203 –guruh BO’M
19	Axmedova Feruza	203 –guruh BO’M
20	Qo’chqorov Rayimjon Bohodirovich	402 – guruh BO’M
21	Xoliqov Abdusalom Abdurashid o’g’li	402– gruppa BO’M.

**To‘garak rahbari:** b.f.d. prof. L.A.Shamsuvaliyeva

**To‘garak sardori:** Jo’rayeva Nilufar

**Kutiladigan natijalar:**

Bilimli yosh biologiya o‘qituvchilarini maktab, kollej va litseylarda “Yosh tabiatshunoslar” to‘garagini tashkil etish uning maqsad va vazifalarini aniqlashga o‘rgatishdir.

**O'quv-uslubiy adabiyotlar va elektron ta'lim resurslari ro'yxati**  
**Asosiy darslik va o'quv qo'llanmalar**

1	Pratov O'., Shamsuvaliyeva L. va boshqalar.	“Botanika”.	T.: “Ta’lim nashriyoti”, 2010. (94 ta lotin yozuvida) darslik.	28.5 V80	U-7056
2	Mustafayev S.M. To‘xtayev A.S.– T.:	“O‘simliklar anatomiyasi va morfologiyasi ”	T.:“O‘zbekiston ”, 2002. (100 ta kiril yozuvida) darslik. “TDPU”, 2001. (10 ta kiril yozuvida) ma’ruza matni.	28.5 M91	U-5807
3	Toshmuxamedov R.I..	“O‘simliklar sistematikasid an amaliy mashg‘ulotlar ”	T.: “O‘zbekiston”, 2006. (50 ta lotin yozuvida) o‘quv qo‘llanma	28.59 T78	U-6419
4	To‘ychiyev S., Toshmonov N., Fayzullayev	“Sitologiya, embriologiya, gistologiya”	T.: “TDPU” 2004. (25 ta kirill alifbosida) o‘quv qo‘llanma.	28.05 T95	U-6576
5	To‘ychiyev S., Toshmonov N.	“Sitologiya, embriologiya, gistologiya”	T.: “Yangi asr avlodi” 2005. (25 ta lotin yozuvida) darslik.	28.05.ya7 3 T81	U-6388
6	To‘xtayev A.S.	“O‘simliklar anatomiyasi va morfologiyasi ”	T.: “TDPU”, 2001. (10 ta kiril yozuvida) ma’ruza matni.	28.56ya73 T98	009486

### Qo'shimcha adabiyotlar:

1. Vasilev i dr. «Botanika, anatomiya i morfologiya rasteniy» M., «Prosvesheniye». 1988.
2. Kursanov L.I. va boshqalar. «Botanika». T., o'rta va oliy maktab, 1978.
3. Jukovskiy P.M. «Botanika». M. «Kolos» 1982.
4. Xrjanovskiy V.G., Panomorenko S.F. «Praktikumpo kursu obshey botaniki» M., «Agropromizdat» 1989.
5. Hamdamov S. va boshqalar. «Botanika asoslari» T. «Mehnat» 1990.
6. Reyvr P., Evrent R., i dr. «Sovremennaya botanika» 1-2 tom, M. «Mir» 1990.
7. Prator U., Odilov T. «O'zbekiston yuksak o'simliklari oilalarining zamonoviy tizimi va o'zbekcha nomlari» T.: 1995. Metodik tavsiy.
8. Toshmuxamedov R. «Botanika (O'simliklar sistematikasi)». T.: 2008.
9. Valixonov M., Uzakova M. «O'simliklar anatomiyasi va morfologiyasidan amaliy mashg'ulot» T.: «O'qituvchi» 1986.
10. Tojiboev SH. «O'simliklar sistematikasi» T.: «O'qituvchi» 1990.
11. Flora O'zbekistana, 1- 6 tom, T.: 1950 - 1962
12. Zufarov K.A. Gistologiy. Meditsina. T.: 1991.
13. Qodirov E. Gistologiy. Mehnat. T.: 1994.

### Elektron ta'lim resurslari

1. [www.catalog.alledu.ru/predmet/bio/botanika/](http://www.catalog.alledu.ru/predmet/bio/botanika/)
2. [www.lyceum1.ssu.runnet.ru/dist/botany/botany.html](http://www.lyceum1.ssu.runnet.ru/dist/botany/botany.html)
3. [www.books.j5.ru/tov/botanika\\_sistematika\\_visshih\\_ili\\_nazemnih\\_rasteniy\\_1](http://www.books.j5.ru/tov/botanika_sistematika_visshih_ili_nazemnih_rasteniy_1)
4. [www.botanik.crown.ru/cgi-bin/shop.cgi](http://www.botanik.crown.ru/cgi-bin/shop.cgi)

**Izoh:** Qo'shimcha adabiyotlar Toshkent shahrida joylashgan kutubxonalarda mavjud bo'lib, talabalarga foydalaniladigan aniq adabiyotlar ro'yxati beriladi.